

KAPITAL TERMININING ETIMOLOGIK VA SEMANTIK TAHLILI (O'ZBEK, RUS VA NEMISCHA LUG'ATLAR ASOSIDA)

Sabirov Asror Abdullayevich

Ma'mun nomidagi jahon tillari NTM, Roman – german Filologiyasi kafedrasi nemis tili fani o'qituwchisi, 10.00.06- "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: Deformatsiya, tirik kapital, o'lik kapital, mablag', daromad, anketa solig'i, iqtisodiy kategoriya, jamg'arma, moliya.

Annotation

Ushbu maqolada "kapital" terminining o'zbek tiliga o'zlashish jarayoni hamda semantik jihatdan rus va nemis tillaridagi o'xshashlik va tafovutlari tahlil qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Insoniyat, jamiyat mavjud ekan, til doimo rivojlanib, boyib boradi, ammo tidagi mazkur boyish jarayoni tilning ichki imkoniyatlari, neologizmlar va o'zlashmalar hisobiga amalga oshiriladi. O'zlashish hodisasi bevosita va bilvosita vositalar yordamida so'zning ma'lum bir deformatsiyaga uchrashi, shakl va ma'no xususiyatlarini saqlagan holda, yoki aksincha shakkarda ro'y berishi mumkin.

Shu bois ham ushbu maqolada nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan "kapital" termini o'zbek, rus va nemis tillaridagi etimologik va izohli lug'atlardan foydalangan holda yoritib berishga harakat qildik.

Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati" da tahlilga tortilgan "orden" termini "Kapital [nem. Kapital < lot. capitalis – bosh, asosiy] 1. iqt. O'zini o'zi ko'paytirish uchun foydalilaniladigan, o'z egasiga foyda, daromat keltiradigan boylik (qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, moddiy mol-mulk va sh. k.). Sanoat kapitali. Savdo kapitali. Kapital bozori. 2. s. t. Katta mablag', ko'p pul, boylik. Kapitalning ma'lum shaxslar qo'lida to'planishi. 3. ko'chma (aniqlovchi so'z bilan) Kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ahamiyatga molik narsa. Jamiyatimizda inson salomatligi bebaho kapital hisoblanadi. Gazetadan. Kapital II Asosli ravishdagi, tubdan bo'ladigan; katta; ko'p mehnat va mablag' talab qiladigan. Kapital mablag'lar. Kapital va joriy ta'mir. Kapital qurilish. Asosiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini qayta ishlab chiqarishni ta'minlovchi yangi ob'yektlar qurilishini va mavjudlarini kengaytirish, shuningdek, ularni rekonstruktsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshiruvchi maxsus qurilish faoliyati."¹ Kapital termininiing asl manba tili lotin tilidagi "capitalis – bosh, asosiy" so'zi bo'lib, , nemischa "Kapital" so'zidan o'zbek tiliga "O'z egasiga foyda, daromat keltiradigan boylik; katta mablag', ko'p pul, boylik; Kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, ahamiyatga molik narsa" kabi ma'nolarida o'zlashganligi qayd etilgan.

¹ Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati". "O'zbekiston nashriyoti", Tuzatilgan 2-nashri. Toshkent – 2020. 2-jild, 316-b.

Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida, Abduvahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monovlarning "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati" da esa: "KAPITAL [nem. Kapital < lot. Capitalis - bosh, asosiy] iqt. O'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bolgan jami vositalar va mablaglar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi kopaytiruvchi qiymat.".² Mazkur lug'atda Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi izohli lug'atga nisbatan tahlilga tortilgan termin etimologik jihatdan bir hil, ya'ni nemis tilidagi "Kapital" so'zidan o'zlashganligi va asosiy manba lotin tilidagi "Capitalis - bosh, asosiy" so'zi ekanligi keltirilib o'tilgan, ammo ushbu terminning semantik jihatdan "O'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bolgan jami vositalar va mablaglar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi kopaytiruvchi qiymat" shakillaridan boshqa ma'nolari sanab o'tilmagan.

C. A. Кузнецовning izohli lug'atida "orden" so'zi "КАПИТАЛ, -а (-у); м. [франц., англ. capital от лат. *capitalis* — главный]. 1. Совокупность средств (имущество, деньги, недвижимость), приносящих прибыль. Промышленный к. Финансовый к. Страны капитала (капиталистические). Власть капитала. 2. обычно мн.: капиталы, -ов. Разг. Значительная сумма денег. Капиталов у меня нет, чтобы такие покупки делать. Капиталу маловато для чего-л. Я нынче при капиталах (богат). Нажить к. (стать богатым). 3. (с опр.). То, что представляет собой большую ценность, важное достояние. Научный к. Моральный к. Политический к. (авторитет в политических кругах). Мёртвый капитал. Финанс. Ценности, не приносящие дохода кому-л. < Капиталец, -льца; м. обычно ед. Уменью. (2 зн.)".³ Mazkur izohli lug'atda "kapital" termini rus tiliga lotin tilidagi "capitalis - главный – asosiy, bosh" so'zidan fransuz, inglizcha "capital" so'zining vositachiligidagi o'zlashganli, ammo nemis tili haqida hech qanday ma'lumot keltirilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari, tahliga tortilgan terminning lingvistik xususiyatlari misollar bilan izohlangan, semantik jihatdan o'zbek tilidagi lug'atlarda keltirilgan ma'nolari deyarli bir xil: "1.Foyda keltiruvchi mablag'lar (mulk, pul, ko'chmas mulk) majmui. Sanoat kapitali. Moliyaviy kapital. Kapital mamlakatlar (kapitalistik). Kapitalning kuchi. 2.Odatda ko'plik: капиталы - kapitallar. Og'zaki nutqda. Katta miqdordagi pul. Bunday xaridlarni amalga oshirish uchun menda kapital yo'q. Biror narsa uchun kapital yetarli emas. Men hozir kapitaldamon (boy). Kapital qilish. (boy bo'lish). 3.Katta qiymatga ega bo'lgan narsa, muhim boylik. Ilmiy kapital. Ma'naviy kapital. Siyosiy kapital (siyosiy doiralardagi hokimiyat). O'lik kapital. Moliya. Kimgadir daromad keltirmaydigan qadriyatlar. "

A.K. Шапошниковning etimologik lug'atida esa, "Капитал 4 – денежное имущество, богатство в деньгах, наличные деньги, наличность, наличная стоимость всякого промыслового и проч. коммерческого заведения, вложенная стоимость, приносящая прибавочную стоимость при капиталистическом способе производства; перен. значительная сумма денег, то, что представляет собой большую ценность, важное достояние. Производные: капитализация, капитализировать(ся), капитализм, капиталист, капиталистический, капиталовложения. ▲ В рус. языке известно с Петровского времени (1708), в словарях с 1731 г. Как экономическая категория – с XVIII–XIX вв. (ср. «Капитал» К. Маркса). ▲ Из франц. *capital* (в экономическом смысле – с XVII в.) при посредстве нем. *das Kapital* с подобными значениями. Европ. рефлексы восходят к лат. *capitalis, -is* «главный (головной); поголовная, подушная подать (*illatio capitalis*)».⁴ Kapital termining ma'nosi - Pul mulki, puldag'i boylik, naqd pul, har qanday tijorat mulkining pul qiymati va boshqalar. Savdo korxonasi, kapitalistik ishlab chiqarish usulida qo'shimcha qiymat ishlab chiqaradigan investitsiya qiymati; Katta miqdordagi pul, katta qiymatga ega narsa, muhim mulk, ekanligini

² Abduvahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monov, „ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati“, Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida. SAHHOF, 2021. 118-b.

³ C. A. Кузнецов, "большой толковый словарь русского языка". Санкт -Петербург «НОРИНТ» 2000. 416-с

⁴ А.К. Шапошников, этимологический словарь современного русского языка, Издательство «Флинта», Издательство «Наука», Москва – 2010. Том 376-с.

ko'rishimiz mumkin. Ammo etimologik jihatdan "kapital" termini fransuz tilidagi "capital" so'zidan (iqtisodiy ma'noda - XVII asrdan) nemis tilidagi "das Kapital" so'zining vositachiligidagi o'xshash ma'nolarga ega holda rus tiliga o'zlashgan. Yevropadagi reflekslar lotin tilidagi capitalis, -is "главный (головной) - ассирий (башни); Anketa solig'i (illatio capitalis)"ga borib taqaladi. Rus tilida Pyotr davridan buyon (1708) mavjud bo'lib, lug'atlarda 1731-yildan beri ma'lum. Iqtisodiy kategoriya sifatida - XVIII-XIX asrlardan beri ma'lum (K. Marksning "Kapital") ekanligini ko'rishimiz mumkin. Har ikkala rus tilidagi izohli va etimologik lug'atlarda "kapital" termininig asl manbasi lotin tilidagi "capital, capitalis - главный – ассирий, башни" so'z ekanligi aytilgan.

Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimovlarning "Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa" lug'atida "Kapital n; -s; -e und -ein; Wirt. kapital, mablag'."⁵ Tahlilga tortilgan terminning faqatgina „kapital, mablag“ kabi ma'nolari keltirib o'tilgan.

Zamirjon Butayev, Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimovlarning Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa" lug'atida ham "Kapital n; -s; -e kapital, mablag'."⁶ bir hil ma'nolari keltirilgan.

"Langenscheidt" lug'atida „**Ka-pi-tal** das; -s, -e/ -ein [-iən] 1. WIRTSCH; das Geld, die Menschen usw, die eine Firma o. Ä. besitzt <die Gesellschaft erhöht ihr Kapital> // K-: **Kapital-, -aufstockung, -bedarf, -besitz, -eigner, -erhöhung, -investition** 2. Geld (das Gewinn bringt, z. B. in Form von Zinsen) = Vermögen <sein Kapital (gut, gewinnbringend) anlegen, das Kapital aufbrauchen> // K-: **Kapital-, -anlage, -ertrag, -vermögen** // ID aus etwas **Kapital schlagen/ ziehen** etwas so (aus)nutzen, dass man einen Vorteil oder einen Gewinn davon hat: *aus einer vertraulichen Information Kapital schlagen; totes Kapital* Wissen, Erfahrungen, Fähigkeiten o. Ä., die man nicht (mehr) nutzen kann"⁷ - "Kapital" termining kelib chiqishi haqida hech qanday ma'lumot berilmagan, faqatgina uning quyidagi ma'nolari keltirilgan "1. Iqtisod; kompaniya yoki shunga o'xshash narsalarga ega bo'lgan pul, odamlar va boshqalar <jamiyat o'z kapitalini oshiradi> 2. Pul (foyda keltiradigan, masalan. foiz shakli) = aktivlar <kapitalini investitsiya qilmoq (yaxshi, foydali), kapitalni ishlatmoq> biror narsadan afzallik yoki foyda oladigan tarzda kapitallash/foydalanish: maxfiy axborotni kapitallash; umuman foydalanib bo'lmaydigan o'lik kapital bilimlari, tajribasi, ko'nikmalari va boshqalar".

Shu o'rinda mazkur so'zning elektron manbalardagi izohlarini ham tahlilga tortishni ma'lum va muayyan ma'noda o'rinali deb topdik. Masalan "Duden" lug'atida tahlilga tortilgan terminning quyidagi ma'lumotlarini uchratish mumkin "**Herkunft** (etimologiyasi): „Italienisch capitale< mittellateinisch capitale = Grundsumme, Kapital, zu lateinisch capitalis, kapital“ – „Kapital“ terminining bosh manbasi o'rta lotinchadagi "capitale -asosiy summa, kapital" so'zi bo'lib lotin tiligan "capitalis, kapital" shakillarida o'zlashgan va italyancha "capitale" so'zidan nemis tiliga kirib kelgan. **Bedeutungen** (ma'nolari): 1. a) alle Geld- und Sachwerte, die zu einer Produktion verwendet werden, die Gewinn abwirft - *foyda keltiradigan ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan barcha pul va moddiy boyliklar;* b) Vermögen eines Unternehmens; Grundkapital; Anlagekapital- *kompaniyaning aktivlari; ustav kapitali; Asosiy kapital;* 2. a) verfügbare Geldsumme, die bei entsprechendem Einsatz geeignet ist, dem Besitzer oder Nutznießer nennenswerten Gewinn zu bringen - *to'g'ri foydalanilganda egasiga yoki foydalanuvchiga katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan mavjud pul summasi;* b) kleinerer Betrag an Bargeld, den man für etwas verfügbar hat - *biror narsa uchun kamroq miqdorda naqd pul mayjud bo'lmoq;* 3. Gesamtheit aller Kapitalisten - *Barcha kapitalistlar yig'indisi;* 4. gewebtes [buntes] Band, das vom Buchbinder an die Ober- und Unterkante des Buchblockrückens geklebt wird - *kitob blokining*

⁵ Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, "Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa". 2-nashr; Toshkent ,Akademiknashr, 2019. 209 - B.

⁶ Zamirjon Butayev, Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa". Toshkent – 2020. 98-B.

⁷ Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, Berlin und München, 2008, 597 S.

yuqori va pastki chetlariga kitob muqovasi bilan yopishtiriladigan to‘qilgan [rangli] lenta. Beispiele „ein bescheidenes, ausreichendes, sicheres Kapital - kamtarona, yetarli, xavfsiz kapital; sein Kapital [gut, äußerst gewinnbringend] anlegen, flüssigmachen - o‘z kapitalini qo‘ymoq [yaxshi, juda foydali], uni likvidli qilmoq; Kapital aus etwas schlagen (aus etwas Vorteil, Gewinn ziehen) - biror narsadan foyda olmoq (bir narsadan foyda olmoq, biror narsadan foyda olmoq)“⁸

“Duden“ elektron lug’atida “kapital“ so’ziga doir ko’proq ma’lumot berilganligiga guvoh bo’lish mumkin. Jumladan, “Worttrennung (bo’g’in ajralishi): **Ka|pi|tal, Synonyme** (sinonimlari): Barschaft, Ersparnisse, Finanzen, Geld - Naqd pul, jamg’arma, moliya, pul

Grammatik (gramatikasi): das Kapital; Genitiv: des Kapitals, Plural: die Kapitale, auch, österreichisch nur: Kapitalien “

Guvohi bo’lganingizdek duden onlayn lug’atida boshqa lug’atlarga qaraganda ayniqsa, lingvistik ma’lumotlar to’liq va aniqroq berilgan

“Kapital” so’zining lotin tilidan tadqiqot qilinayotgan tillarga o’zlashish jarayonini kuzatadigan bo’lsak, o’rta lotin tilidagi “capitale” lotin tiliga „capital, capitalis“, fransuz va ingliz tillariga “capital“, nemis tiliga “Kapital“, rus tiliga “капитал” o’zbek tiliga “kapital“ shakillaridagi qisman imlo va fonetik o’zgarishlar bilan o’zlashgan. Ushbu so’zning semantik xususiyatlari haqida gapirlisa, uning o’z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bolgan jami vositalar va mablaglar“ ma’nosi tepada keltirib o’tilgan tillardagi lug’atlarda deyarli bir hil. Biroq uning ikkinchi “O’lik kapital, umuman foydalanib bo’lmaydigan o’lik kapital - bilimlari, tajribasi, ko’nikmalari“ ma’nosi faqatatgina C. A. Кузнецовning izohli lug’atida hamda “Langenscheidt” lug’atida uchratish mumkin. Etimologik jihatdan “kapital“ terminining o’zbek tiliga o’zlashishi lotin> fransuz> nemis tillari orqali sodir bo’lganligi haqidagi ma’lumot faqatgina A.K. Шапошниковning etimologik lug’atida mavjud, ammo tahlilga tortilgan terminining nemis tiliga italyan tilidan o’zlashganligi haqidagi manbalari “Duden“ elektron lug’atida mavjud

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A.K. Шапошников, этимологический словарь современного русского языка, Издательство «Флинта», Издательство «Наука», Москва – 2010.
2. Abduvahob Madvaliyev, Ne’mat Mahkamov, Shuhrat Ko’chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo’ja Saidno’monov, “ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug’ati“, Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida. SAHHOF, 2021.
3. Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi “O’zbek tilining besh jildli izohli lug’ati”. “O’zbekiston nashriyoti”, Tuzatilgan 2-nashri. Toshkent – 2020.
4. <https://www.duden.de/>
5. Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, Berlin und München, 2008, 799 S.
6. C. A. Кузнецов, “большой толковый словарь русского языка”. Санкт -Петербург «НОРИНТ» 2000. 724-с
7. Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, “Nemischa-o’zbekcha, o’zbekcha-nemischa”. 2-nashr; Toshkent ,Akademiknashr, 2019.
8. Zamirjon Butayev, Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, “Nemischa-o’zbekcha, o’zbekcha-nemischa”. Toshkent – 2020.

⁸ <https://www.duden.de/rechtschreibung/Kapital>